# TIQXMMI Qarshi filialida 2021-2022 oʻquv yili uchun vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan abiturientlarni filial sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish boʻyicha suhbat tashkil etildi

Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim muassalariga qabul qilish boʻyicha Davlat komissiyasining 2021 yil 20 iyuldagi majlisi 2-son bayoni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2021 yil 6 oktyabrdagi 02/15-4/1-3634-sonli xatida belgilangan vazifalarni ijrosini taʼminlash maqsadida TIQXMMI Qarshi filialida 2021-2022 oʻquv yili uchun vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan talabgorlarni sirtqi taʼlim shakli boʻyicha qabul qilish uchun suhbat komissiyasi 2021 yilning 19 oktyabr sanasida oʻz ishini boshladi.  Komissiya raisi, filial direktori Z.Muqimov soʻzga chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish boʻyicha Davlat komissiyasining 2019 yil 4 iyuldagi majlisi 1-son bayoni (20-ilovasi) bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega boʻlgan fuqarolarni sirtqi va kechki taʼlim shakliga suhbat natijalariga koʻra tabaqalashtirilgan toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga qabul qilish” Tartibi bilan belgilab berilgan suhbat oʻtkazilishi tartib-qoidalari bilan tanishtirib oʻtdi. Suhbat natijalari 100 ballik tizimda baholanishi va saralash bali 55 balldan iborat ekanligini bildirdi. Suhbat jarayonida tavsiyanomaga ega boʻlgan abiturientlarning mehnat faoliyatini olib boriayotgan soha boʻyicha umumiy maʼlumotga egaligi, lavozim vazifalari, oliy maʼlumot olishdan maqsadi aniqlanishini taʼkidladi. Tavsiyanomaga ega boʻlgan abiturientlarni filial Sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish va uning natijalarini belgilash boʻyicha suhbat komissiya yigʻilishini ochiq deb eʼlon qildi.

Qabul komissiyasi masʼul kotibi D.Quvvatov tomonidan filial Sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish tavsiyanomasiga ega boʻlgan abiturientlarni suhbat oʻtkazilishi uchun auditoriyaga taklif etildi. Qabul komissiyasi masʼul kotibi  D.Quvvatov soʻzga chiqib, qatnashchilarni filial direktorining 2021 yil 11 oktyabrdagi “2021/2022 oʻquv yili uchun tavsiyanomaga ega boʻlgan abiturientlarni sirtqi taʼlim shaklida oʻqishga qabul qilish boʻyicha suhbat komissiyasi tarkibini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi  317A/F – sonli buyrugʻi (1-ilovasi)ga asosan taqdiqlangan suhbat komissiyasining tarkibini tanishtirdi. Suhbat komissiyasi ishida ishtirok etish uchun Surxondaryo suv taʼminoti MChJ ning iqtisod boʻlimi boshligʻi X.Buriev, bosh muhandis E.Boltaev, Qashqadaryo suv taʼminoti MChJ ning kadrlar boʻlimi boshligʻi Sh.Bekmurodova, bosh dipetcheri Gʻ.Boʻriev, Koson DMQQ MChJ kadrlar boʻlimi boshligʻi Sh.Burxonov, Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi boshligʻining birinchi oʻrinbosari S.Safarov va Qashqadaryo Agroservis MTP MChJ ning kadrlar boʻlimi boshligʻi F.Toshtemirovalar filialga tashrif buyurishdi.

Abiturientlar baholash mezonlari va suhbat oʻtkazish tartib qoidalari bilan tanishtirildi va tayyorgarlik koʻrib boʻlgach suhbat jarayoni boshlandi. Abiturientlar suhbat komissiya aʼzolari tomonidan berilgan savollarga javob berdi. Komissiya aʼzolari abiturientlarning savollarga bergan javoblarini baholab bordi. Qabul komissiyasi masʼul kotibi D.Quvvatov, suhbat jarayoni yakunlanganligini eʼlon qilib, abiturientlarga suhbat natijalari bir ozdan soʻng eʼlon qilinishini aytib oʻtdi.  Suhbat komissiya raisi va aʼzolari tomonidan 2021-2022 oʻquv yili uchun Vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan abiturientlarni filial Sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish boʻyicha suhbatga qoʻyilgan oʻrtacha ballni hisoblab chiqdi va komissiyaning xulosasini eʼlon qildi. Komissiya xulosasiga asosan Vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan abiturientlarning barchasi talabalikka tavsiya etildi va ularga kelgusida oʻz sohalarida yetuk kadrlar boʻlib yetishishlarini va soha rivojiga munosib hissa qoʻshishlariga yuksak ishonch bildirildi.

TIQXMMI Qarshi filialida 2021-2022 oʻquv yili uchun vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan abituriyentlarni filial sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish boʻyicha suhbat tashkil etildi Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim muassalariga qabul qilish boʻyicha Davlat komissiyasining 2021 yil 20 iyuldagi majlisi 2-son bayoni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2021 yil 6 oktyabrdagi 02/15-4/1-3634-sonli xatida belgilangan vazifalarni ijrosini taʼminlash maqsadida TIQXMMI Qarshi filialida 2021-2022 oʻquv yili uchun vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan talabgorlarni sirtqi taʼlim shakli boʻyicha qabul qilish uchun suhbat komissiyasi 2021 yilning 19 oktyabr sanasida oʻz ishini boshladi. Komissiya raisi, filial direktori Z.Muqimov soʻzga chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish boʻyicha Davlat komissiyasining 2019 yil 4 iyuldagi majlisi 1-son bayoni (20-ilovasi) bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega boʻlgan fuqarolarni sirtqi va kechki taʼlim shakliga suhbat natijalariga koʻra tabaqalashtirilgan toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga qabul qilish” Tartibi bilan belgilab berilgan suhbat oʻtkazilishi tartib-qoidalari bilan tanishtirib oʻtdi. Suhbat natijalari 100 ballik tizimda baholanishi va saralash bali 55 balldan iborat ekanligini bildirdi. Suhbat jarayonida tavsiyanomaga ega boʻlgan abituriyentlarning mehnat faoliyatini olib boriayotgan soha boʻyicha umumiy maʼlumotga egaligi, lavozim vazifalari, oliy maʼlumot olishdan maqsadi aniqlanishini taʼkidladi. Tavsiyanomaga ega boʻlgan abituriyentlarni filial Sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish va uning natijalarini belgilash boʻyicha suhbat komissiya yigʻilishini ochiq deb eʼlon qildi.

Qabul komissiyasi masʼul kotibi D.Quvvatov tomonidan filial Sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish tavsiyanomasiga ega boʻlgan abituriyentlarni suhbat oʻtkazilishi uchun auditoriyaga taklif etildi. Qabul komissiyasi masʼul kotibi D.Quvvatov soʻzga chiqib, qatnashchilarni filial direktorining 2021 yil 11 oktyabrdagi “2021/2022 oʻquv yili uchun tavsiyanomaga ega boʻlgan abituriyentlarni sirtqi taʼlim shaklida oʻqishga qabul qilish boʻyicha suhbat komissiyasi tarkibini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 317A/F – sonli buyrugʻi (1-ilovasi)ga asosan taqdiqlangan suhbat komissiyasining tarkibini tanishtirdi. Suhbat komissiyasi ishida ishtirok etish uchun Surxondaryo suv taʼminoti MCHJ ning iqtisod boʻlimi boshligʻi X.Buriyev, bosh muhandis E.Boltayev, Qashqadaryo suv taʼminoti MCHJ ning kadrlar boʻlimi boshligʻi Sh.Bekmurodova, bosh dipetcheri Gʻ.Boʻriyev, Koson DMQQ MCHJ kadrlar boʻlimi boshligʻi Sh.Burxonov, Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi boshligʻining birinchi oʻrinbosari S.Safarov va Qashqadaryo Agroservis MTP MCHJ ning kadrlar boʻlimi boshligʻi F.Toshtemirovalar filialga tashrif buyurishdi. Abituriyentlar baholash mezonlari va suhbat oʻtkazish tartib qoidalari bilan tanishtirildi va tayyorgarlik koʻrib boʻlgach suhbat jarayoni boshlandi. Abituriyentlar suhbat komissiya aʼzolari tomonidan berilgan savollarga javob berdi. Komissiya aʼzolari abituriyentlarning savollarga bergan javoblarini baholab bordi. Qabul komissiyasi masʼul kotibi D.Quvvatov, suhbat jarayoni yakunlanganligini eʼlon qilib, abituriyentlarga suhbat natijalari bir ozdan soʻng eʼlon qilinishini aytib oʻtdi. Suhbat komissiya raisi va aʼzolari tomonidan 2021-2022 oʻquv yili uchun Vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan abituriyentlarni filial Sirtqi taʼlim yoʻnalishlariga oʻqishga qabul qilish boʻyicha suhbatga qoʻyilgan oʻrtacha ballni hisoblab chiqdi va komissiyaning xulosasini eʼlon qildi. Komissiya xulosasiga asosan Vazirlik, idora va yirik xoʻjalik birlashmalarining tavsiyanomasiga ega boʻlgan abituriyentlarning barchasi talabalikka tavsiya etildi va ularga kelgusida oʻz sohalarida yetuk kadrlar boʻlib yetishishlarini va soha rivojiga munosib hissa qoʻshishlariga yuksak ishonch bildirildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**